

NAVOIY VILOYATINING TASHKIL TOPGAN DAVRIDAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIKKA ERISHGUNGA QADAR BO‘LGAN DAVRDAGI DEMOGRAFIK TARIXI

T.K.Oblayeva

Navoiy Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
o‘zbekiston respublikasi ichki ishlar vazirligi navoiy akademik  
liseyi tarix fani o‘qituvchisi  
Email:tursunoyjoni@gmail.com  
<https://orcid.org/0009-0008-4317-1893>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986510>

**Аннотация:** Ушбу мақолада мақсад ЎзССРнинг ташкил топганидан то Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгунга қадар бўлган даврдаги ва Навоий вилоятининг 1982 йил, яъни вилоят ташкил топгандан то Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгунга бўлган даврдаги демографик тарихини қисман ўрганиш. Мақолада Ўзбекистон ССР ва унинг таркибидаги Навоий вилоятидаги аҳоли сони, унинг демографик тарихи 1980, 1985, 1986 ва 1987 йиллардаги СССР демографик йилномаларида акс этган манбалар асосида ҳамда Ўзбекистон Республикаси ва Навоий вилоятининг демографик тарихи статистик маълумотлар асосида таҳлили олиб борилган.

**Калит сўзлар:** ЎзССР, демографик йилномалар, аҳолининг рўйхатдан ўтказилиши, Навоий вилояти, Навбахор тумани, саноат корхоналари

**Аннотация:** Целью данной статьи является частичное изучение демографической истории УзССР с момента её образования до обретения Республикой Узбекистан независимости, а также демографической истории Навоийской области с момента её основания в 1982 году до достижения независимости. В статье проведен анализ численности населения и демографической истории Узбекской ССР и входящей в её состав Навоийской области на основе материалов, отраженных в демографических ежегодниках СССР за 1980, 1985, 1986 и 1987 годы, а также статистических данных Республики Узбекистан и Навоийской области.

**Ключевые слова:** УзССР, демографические ежегодники, перепись населения, Навоийская область, Навбахорский район, промышленные предприятия.

**Abstract:** The purpose of this article is to partially study the demographic history of the UzSSR from its formation until the independence of the Republic of Uzbekistan, as well as the demographic history of the Navoi region from its establishment in 1982 until the independence of the Republic of Uzbekistan. The article provides an analysis of the population size and demographic history of the Uzbek SSR and its constituent Navoi region, based on sources reflected in the USSR demographic yearbooks of 1980, 1985, 1986, and 1987, as well as statistical data of the Republic of Uzbekistan and the Navoi region.

**Keywords:** UzSSR, demographic yearbooks, population census, Navoi region, Navbakhor district, industrial enterprises.

Zamonaviy O‘zbekiston Respublikasi ko‘p sonli, yosh va tezlik bilan o‘tib borayotgan demografik va mehnat salohiyatiga ega davlatlardan biridir. Aholi soni bo‘yicha vatanimiz Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining eng yirik davlati hisoblanadi. Sobiq Ittifoqi davrida va mustaqillik yillarida respublika demografik rivojlanishning murakkab yo‘lini bosib o‘tdi, aholining tabiiy o‘sishi va aholi migratsiyasi ko‘rsatkichlaridagi sezilarli farqlar kuzatildi. Shunga qaramay mustaqillik yillarida demografik vaziyatning barqarorligi saqlandi va bu ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biriga aylandi. Bugungi kunda respublikaning demografik manzarasida qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish uchun esa fuqarolarning o‘ziga xos xususiyatlari va milliy mentalitetini, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga oluvchi samarali demografik siyosatni amalga oshirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgandan so‘ng demografik nuqtai nazardan ham Markaziy Osiyoda, ham MDH hududida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mamlakatga aylandi. Ma‘lumki, O‘zbekiston aholi soni jihatidan Markaziy Osiyoda yetakchi va MDH davlatlari orasida eng yirik mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Z.N.Tojiyevaning fikriga ko‘ra, ushbu davrda respublika bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bir vaqtda demografik o‘tish jarayonini ham boshdan kechirgan. Shuningdek, o‘tish davrini boshdan

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

kechirayotgan mamlakatlar aholisining reproduktiv qarashlaridagi o‘zgarishlar nafaqat bolalar sonining qisqarishi, balki ularning sifati ijobiy tomonga o‘zgarishi bilan ham birga kechishi ta’kidlanadi .

O‘zbekiston SSR Sobiq Ittifoq tarkibiga 1925 yilda qabul qilingan bo‘lsa, respublika ushbu yirik socialistik davlat tarkibida 76 yil davomida uning tarkibiy qismi sifatida mavjud bo‘lgan, ushbu davr mobaynida butun Sovet Socialistik davlati miqyosida jami 6 marta aholini ro‘yxatga olish tadbirlari olib borilgan, ular 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillarda amalga oshirilgan . Uning natijalari asosida esa O‘zSSRning 10 yilliklar kesimidagi aholi soni hisoblangan.

1926 <sup>107</sup>	1939 <sup>108</sup>	1959	1970 <sup>109</sup>	1979	1989
2 663 000	6 271 269	8 105 704	11 799 000	15 389 307	19 810 077

1987 yilda nashr etilgan “Naseleniye SSSR. 1987: Statisticheskiy sbornik” manbasi orqali quyidagi tahlil olib borildi:

1981 yil O‘zbekiston SSR aholisi 16158 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, shundan Navoiy viloyati hududida 530 ming kishi yashagan. Agar O‘zSSR aholisining 6706 ming nafari shahar aholisini, 9452 ming nafari qishloq aholisini tashkil etgan bo‘lsa, Navoiy viloyati hududida yashagan aholining 225 ming nafari shaharlarda, 305 ming nafari esa qishloq tumanlarida yashagan. Bu albatta Navoiy viloyati shahar aholisining qishloq hududlarda istiqomat qilayotgan aholiga nisbatan sezilarli darajada ko‘p ekanligidan dalolat beradi .

Bu ko‘rsatkich 1986 yilda O‘zbekiston SSR aholisi 18487 ming nafarni, uning tarkibidagi Navoiy viloyati aholisi soni esa 611ming kishini tashkil etgan. Shundan shahar aholisi 7745 ming nafar, qishloq aholisi 10742 ming nafarni, Navoiy viloyatida esa 262 ming nafar shahar aholisi, 349 ming nafar qishloq aholisi bo‘lgan. Agar foizlarda qaraydigan bo‘lsak Navoiy viloyatida qishloq aholisi shaharnikiga nisbatan 133%ga ko‘p kishini tashkil etadi. Navoiy viloyatida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan sanoat korxonalari ko‘payganligi va ulardagi ishchilar salmog‘i hisobiga shahar aholisi ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin.

1987 yil ma’lumotlariga qaraganda esa respublika miqyosida jami aholi soni 19026 ming kishini, shundan shahar aholisi 7974 ming kishini, qishloq aholisi esa 11052 ming kishini tashkil etgan. Navoiy viloyati jami aholisi 629 ming kishini, shahar aholisi 269 ming kishini, qishloq aholisi esa 360 ming kishini tashkil etgan. 1986 va 1987 yillar davomida aholi soni respublika miqyosida salkam 3%, va Navoiy viloyati miqyosida ham xuddi shunday 3%ga ko‘paygan.

Navoiy viloyatining markazi hisoblangan Navoiy shahrida 1981 yilda 90 ming kishi, 1986 yilda 103 ming, 1987 yilda 106 ming kishi yashagan .

1980 yil O‘zbekiston SSRda tug‘ilganlar soni 540047 kishini tashkil etgan shundan Navoiy viloyatida 19487 kishi. Vafot etganlar soni esa O‘zSSRda 118886 kishi, Navoiy viloyatida 3877 kishini tashkil etgan, respublika bo‘yicha aholining tabiiy o‘sishi 421161 kishini, Navoiy viloyatida 15970 kishini tashkil etgan.

1985 yil O‘zbekiston SSRda tug‘ilganlar soni 679057 kishini tashkil etgan shundan Navoiy viloyatida 22591 kishini tashkil etgan. Vafot etganlar soni esa O‘zSSRda 131686 kishi, Navoiy viloyatida 3815 kishini tashkil etgan, respublika bo‘yicha aholining tabiiy o‘sishi 547371 kishini, Navoiy viloyatida 18776 kishini tashkil etgan.

1986 yil O‘zbekiston SSRda tug‘ilganlar soni 708658 kishini tashkil etgan shundan Navoiy viloyatida 23046 kishi tashkil etgan. Vafot etganlar soni esa O‘zSSRda 132213 kishi, Navoiy viloyatida 3975 kishini tashkil etgan, respublika bo‘yicha aholining tabiiy o‘sishi 576445 kishini, Navoiy viloyatida 19071 kishini tashkil etgan .

1980 yillardagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra Navoiy viloyatining aholisi ko‘payib borishi asosan viloyat hududida tashkil etilgan sanoat korxonalar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu omilni hisobga olgan holda holda Navoiy viloyatida Sobiq ittifoq davrida tashkil topgan va ayrimlari bugungi kunda ham faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini tashkil topgan davriga e’tibor bersak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Navoiy viloyatidagi dastlabki sanoat korxonalaridan biri bo‘lgan Navoiy GRES 1956 yilda tashkil topgan .

<sup>107</sup> [https://archive.org/details/perepis\\_naseleniia\\_1926](https://archive.org/details/perepis_naseleniia_1926)

<sup>108</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>

<sup>109</sup> <https://istmat.org/node/20544>

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Viloyat miqyosida muhim ahamiyat kasb etgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) respublikaning yirik sanoat korxonalaridan biridir. Bu korxonaga SSSR Ministrlar Sovetining 1958 yil 11 martdagi qaroriga asosan 1958 yil 1 sentyabrda tashkil topgan .

Nafaqat viloyat miqyosida balki respublikada qishloq xo‘jaligida keng qo‘llaniladigan mineral o‘g‘itlar, noorganik moddalar va boshqa shu toifadagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan Navoiy kimyo korxonasi qurilishining loyihasi 1960 yilda tasdiqlangan va 1964 yilda ishga tushirilgan. 2002 yilda “Navoiyazot” ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilgan .

Yana bir viloyatdagi sanoat korxonalaridan “Qizilqumsement” ochiq aksiyadorlik jamiyati nafaqat Navoiy viloyatida, balki O‘zbekistonda ham yirik korxonalardan biridir. Korxonaga 1977 yil 14 iyulda ish boshlagan .

Yuqorida sanab o‘tilgan sanoat korxonalarining viloyat hududida bunyod etilishi Navoiy viloyati aholisining oshishishiga sabab bo‘lgan, agar ushbu korxonalarining tashkil topgan dastlabki yillarida SSSRning respublikalararo kadrlar siyosatiga ko‘ra 1960-1980 yillarda sanoat shaharlariga kadrlar yetishmasligi bahonasida ko‘plab rus, ukrain va belarus millatiga mansub aholi ko‘chib kelgan. Lekin 1980 yillarning ohirlariga kelib ularning ko‘pchiligi o‘z ona vatanlariga qaytish holatlari kuzatilgan.

Navoiy oblasti O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1982 yil 20 apreldagi № 2247-X-sonli farmoni asosida tashkil etilgan . Biroq olti yildan so‘ng O‘zbekiston Oliy Soveti Prezidiumining 1988 yil 6 sentyabr № 2661-XI Farmoniga asosan Navoiy oblasti ma‘muriy birlik sifatida tugatilib, uning hududi Samarqand oblastiga qo‘shib yuborildi . Shundan so‘ng O‘zbekiston Oliy Soveti Prezidiumining 1989 yil 16 maydagi “Samarqand oblasti hududlarining bir qismini Buxoro oblasti tarkibiga berish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Shu munosabat bilan Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlari hamda Navoiy, Navbahor, Qiziltepa, Tomdi, Uchquduq, Konimex rayonlari Buxoro oblasti, Xatirchi va Nurota tumanlari esa Samarqand oblasti tarkibiga kiritildi va Navoiy viloyati 1992 yilda qayta tiklanadi .

Shu sababli 1989 yilda butunittifoq aholisi ro‘yxatdan o‘tkazilganda bugungi kunda Navoiy viloyati tarkibida bo‘lgan shahar va tumanlar aholisi Buxoro va Samarqand viloyatlari tarkibida berilgan va ular quyidagicha :

Buxoro viloyati tarkibidagi hududlar aholi soni	Navoiy shahar	Navoiy tumani (hozirgi Karmana tumani )	Zarafshon shahar	Uchquduq shahar	Uchquduq tumani	Konimex tumani	Qiziltepa tumani	Tomdi tumani
	114594	129824	55614	24040	14740	37336	85222	26769
Samarqand viloyati tarkibidagi hududlar	Nurota tumani	Xatirchi tumani						
	57314	110857						

Navbahor tumani 1988 yilda tugatilganligi va ushbu tuman aholisi esa Navoiy tumani aholisi tarkibiga o‘tkazilgan .

Buxoro viloyati tarkibida hozirgi Navoiy viloyatining Navoiy shahar, Navoiy tumani, Zarafshon shahar, Uchquduq shahar, Uchquduq tumani, Konimex tumani, Tomdi tumani, Qiziltepa tumanlari aholisi soni jami 488139 kishini, Samarqand viloyati tarkibidagi Nurota va Xatirchi tumanlarining jami aholisi soni 168171 kishini tashkil etgan. Buxoro va Samarqand viloyatlari tarkibida bo‘lgan hozirgi Navoiy viloyatining jami aholisi esa 656310 kishini tashkil etgan.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Navoiy viloyati aholisi 1981 yilda 530 ming kishini, 1986 yilda 611 ming kishini, 1987 yil 629 ming kishini, 1989 yilda esa 656310 kishini tashkil etgan.

Navoiy viloyati va uning tumanlari aholisi Sobiq Ittifoq davrida viloyat hududida barpo etilgan sanoat korxonalarida faoliyat yuritish uchun ko‘chib kelgan ishchilar soni, mahalliy aholining tabiiy o‘sishi hisobiga ko‘paygan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ilmiy nashrlar va tadqiqot natijalari, aholini ro‘yxatga olish yakuniy natijalarining statistik to‘plamlari demografik jarayon bilan bog‘liq faoliyat va arxiv ma’lumotlari Navoiy viloyatining aholisi soni ko‘payib borishini va uning sabablarini aniqlash uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Aholini ro‘yxatga olish faoliyati tarixini o‘rganish kelgusida bunday tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etishga va shu kabi jarayon uchun tajriba maydoni bo‘lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон ССР составида Навоий области ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиумининг фармони // Ўзбекистон ССР Олий Совет Ведомостлари. Тошкент, 1982. 10-сон. – Б. 3; Индустриальный Навои. – 1982. – 29 апреля

2. Об объединении Навоийской и Самаркандской областей Узбекской ССР. Указ Президиума Верховного Совета Узбекской ССР // Ўзбекистон ССР Олий Совет Ведомостлари. Тошкент, 1988. 25-сон. – С. 12.

3. Самарканд область территориясининг бир қисмини Бухоро области таркибига ўтказиш тўғрисида Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиумининг фармони // Ўзбекистон ССР Олий Совет Ведомостлари. Тошкент, 1989. 14– 15-сон. – Б. 4

4. **Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). — Ташкент: “Фан ва технология”, 2010**

5. **Население СССР. 1987: Статистический сборник/Госкомстат СССР— М.: Финансы и статистика, 1988.**

6. Нарзуллаев У.О. Ўзбекистон Республикаси Навоий вилоятининг замонавий тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари мавзусидаги диссертация автореферати

7. Латипов Н. “Навоий вилояти шаҳарларининг вужудга келиши ва таркибий тuzилиши” мавзусидаги мақоласи. <http://journals.nuu.uz>

8. Бердников Е., Шеметов П., Бычков В. Годы и люди Мурунтау. – Ташкент: Мир экономики и права, 1998.

#### *Интернет сайтлари*

9. <https://uzkimyosanoat.uz/uz/company/history>

10. <https://old.navoi.uz/uz/home/blog/viloyat-tarixi>

11. <https://istmat.org/node/20544>

12. [https://archive.org/details/perepis\\_naseleniia\\_1926](https://archive.org/details/perepis_naseleniia_1926)

13. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

14. <https://istmat.org/node/20544>